



## FARG'ONA VILOYATI AHOLISINING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLANISHINING UMUMIY JIHLTLARI

**Nasirdinova Saboxat Xudoyberdi qizi**

*Quva tumani 13-maktab geografiya fani o'qituvchisi*

**Madaminova Madina Boxodirjon qizi**

*Farg'ona shahar 16-maktab geografiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada aholi iste'moli turlari, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishning geografik jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *antropogen bosim, o'z-o'zini ta'minlanish koeffitsiyenti, aholi iste'moli, ratsional me'yor, fiziologik mayor*

**Abstract:** *This article examines the types of population consumption, geographical aspects of food supply to the population. Also, indicators of self-sufficiency with food products were analyzed.*

**Key words:** *anthropogenic pressure, self-sufficiency coefficient, population consumption, rational norm, physiological norm*

“Tabiat-aholi-xo'jalik” uchlik tizimida aholi markaziy o'rinda turadi. U tabiatga ta'sir qiladi, undan oladi, foydalanadi, xo'jaligini tashkil etadi va o'z hayotini kechiradi. Tabiat, aholi va xo'jalikning o'zaro munosabati umumgeografik va, ayni vaqtda, geoekologik vaziyatni yuzaga keltiradi. Shu sababdan ham bu “uchlik” geografiya fanida olib borilayotgan tadqiqotlarda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Farg'ona vodiysi, jumladan, Farg'ona viloyatida tabiat, aholi va xo'jaligi piramida shaklida tasvirlansa, tabiati “yupqa” va nozik, demografik yuki katta, xo'jaligi o'rtacha ko'rinishga ega bo'ladi. Aholi va xo'jalikning birgalikdagi ta'siri o'ziga xos zo'riqish, kuchli antropogen bosimni keltirib chiqaradi. Mintaqaning asosiy ijtimoiy geografik muammosi ham ana shu bosimni yengillashtirish, aholi hayoti va faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lmog'i lozim. Sababi, aynan demografik bosim, yer-suv zahiralarning yetishmasligi, ozligi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangicha, zamonaviy, industrial-innovatsion rivojlanish strategiyasi va yo'nalishlarini taqozo etadi.

Viloyat aholisining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi o'ziga xosliklardan iborat. Rossiyalik olim E.N.Antamoshkina tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligini ko'rsatkichlarini aniqlashda, mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini baholash jihatdan qulay bo'lgan metodologiya yordamida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti yordamida baholashda har bir qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha mintaqa oziq-ovqat mustaqilligi (o'z-o'zini ta'minlash) darajasini baholash maqsadga muvofiqdir. Bu metodologiya yordamida hududda ishlab chiqarilgan yoki yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z aholisi ehtiyojini qanchalik ta'minlay olishi mumkinlini aniqlash mumkin va va quyidagicha hisoblanadi.



$$K_{o'z} = Q / (n * Q_p) \quad (1)$$

Bu yerda  $K_{o'z}$ -o'z o'zini ta'minlash koeffitsiyenti;  
Q-ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi  
n-aholisi soni

$Q_p$ -iste'molning ratsional miqdori

O'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyentini hududning tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib, asosiy iste'mol qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (bug'doy, poliz ekinlari, sabzavot, ho'l meva, kartoshka, uzum, go'sht va go'sht mahsulotlari, tuxum, sut) bo'yicha hisoblash maqsadga muvofiqdir.

1-jadval.

Farg'ona viloyatida 2021 yilda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichi\*

Oziq-ovqat mahsulotlari nomi	Bug'doy	Kartoshka	sabzavot	Poliz	Ho'l meva	uzum	Go'sht	Sut	Tuxum (mln dona)
Viloyatda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsuloti hajmi	614,2	354,4	1400,5	158,2	371,1	181,7	175,5	1077,8	590,9

\*-Jadval Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Keltirilgan ma'lumotlar asosida mintaqaning asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat bilan o'z-o'zini ta'minlash darajasini hisoblash natijalari navbatdagi jadvalda keltirilgan

2021 yilda ratsional iste'mol meyorlariga muvofiq, viloyatda yetarli miqdorda bug'doy, kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, uzum, meva, sut ishlab chiqargan. Ammo viloyat go'sht mahsuloti bilan 97 %ga, tuxum mahsuloti bilan esa 74%ga o'z aholisini ta'minlar ekan. Viloyatda uzum ratsional iste'mol meyorlarga muvofiq 3 barobardan ko'proq, sabzavot yetishtirish 2 barobardan ko'proq yetishtirilgan.

2-jadval.

Farg'ona viloyatining 2021 yilgi o'z-o'zini oziq-ovqatlar bilan ta'minlash darajasi\*

	Oziq-ovqat mahsulotlari turi	Amalda ishlab chiqarilgan mahsulotni Q, ming tonda	Fiziologik zaror bo'yicha 1 yilda iste'mol qilish hajmi $Q_p$ , kg	Ratsional oziq-ovqat ishlab chiqarishning zaruriy miqdori, ming t	O'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti
1.	Bug'doy	614,2	94	366,3	1,68
2.	Kartoshka	354,4	68	265,0	1,34
3.	Sabzavot	1400,5	178	693,6	2,02





4.	Poliz	158,2	21,5	83,8	1,89
5.	Ho'l meva	371,1	75	292,2	1,27
6.	Uzum	181,7	15,4	60,0	3,03
7.	Go'sht	175,5	46,2	180,0	0,97
8.	Sut	1077,8	218,9	852,9	1,26
9.	Tuxum (mln dona)	590,9	206 (дона)	802,7	0,74

*\*-Jadval Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan*

Viloyatdagi ma'muriy birliklarda ham yuqoridagi metodogiya bo'yicha tahlil natijalari quyidagicha.

Viloyatning bug'doy bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti 1,68 ga teng bo'lib, ma'muriy birliklar bo'yicha bu ko'rsatkich bir biridan keskin farqlarga ega. Jumladan, Yozyovon tumani (4,28), Furqat (3,44), Qo'shtepa (3,39), Rishton (2,83), Dang'ara (2,67), Bag'dod (2,44), Beshariq (2,37) tumanlarida o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori ekanligini, So'x tumani (viloyatdagi yirik shaharlarni hisobga olmaganda) eng past ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin (3.1.1-rasm). Shuningdek, Farg'ona, O'zbekiston, Uchko'prik tumanlarida ham viloyat ko'rsatkichidan biroz ko'proq koeffitsiyent qayd etilgan. Kartoshka bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti viloyatda 1,34 ga teng bo'lib, tumanlar orasida So'x, Yozyovon, Bag'dod, Qo'shtepa bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyentining yuqori ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi (6-ilova). Buvayda (0,98) va Rishton (0,98) tumanlarida esa bu holatning aksi kuzatiladi. Ya'ni kartoshka bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti viloyat ko'rsatkichidan past.

Viloyatning to'rtinchi yirik shahri Quvasoy shahrida yetishtirilgan kartoshka hudud aholisi ehtiyoji talabidan 2,17 barobarga ko'proq.

Viloyatning Oltiariq, Rishton, Qo'shtepa tumanlarida sabzavot yetishtirish miqdori yetarli miqdordan bir necha barobar ko'proq bo'lsa, So'x tumanida yetishtirilgan sabzavot o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti ko'rsatkichlari bo'yicha tuman ehtiyojlarini qondirmaydi.

Poliz ekinlari bilan o'z o'zini ta'minlash koeffitsiyenti Qo'shtepa (7,51), Oltiariq (4,17), Bag'dod (4,29) tumanlarida yuqori bo'lsa, Furqat tumanida o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti 1 dan past ko'rsatkichni tashkil etsa, Furqat va So'x tumanlarida esa o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti juda ham pastligini ko'rish mumkin.

Farg'ona va Rishton tumanlari va Quvasoy shahrida meva bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti boshqalarga nisbatan yuqori bo'lsa, Oltiariq, Buvayda, Dang'ara, Furqat, Yozyovon tumanlarida o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti 1 dan past.

Oltiariq tumani uzum bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti 17,21 ga teng bo'lib, bu jihatidan Oltiariq tumani nafaqat viloyatda, balki Respublikada ham yetakchi hisoblanadi. Shuningdek, Qo'shtepa, Farg'ona, O'zbekiston tumanlarida ham uzum bilan o'z-o'zini ta'minlash koeffitsiyenti ancha yuqoriligini qayd etish mumkin. Tumanlar orasida Beshariq, Uchko'prik, So'x, Furqat tumanlarini o'z-o'zini uzum bilan ta'minlay olmaydi.



Viloyatning o'z o'zini go'sht bilan ta'minlash koeffitsiyenti 0,97 ga teng bo'lib, bu holat ma'muriy birliklarda o'z aksini topgan. Jumladan Bag'dod, Oltiariq, Farg'ona, Dang'ara, Furqat, Buvayda tumanlari va Quvasoy shahridan tashqari qolgan hududlarda o'z o'zini go'sht bilan ta'minlash koeffitsiyenti 1 dan past.

Viloyat ma'muriy birliklarida oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlashning o'rtacha qiymatlari hisoblanib, ma'muriy-birliklar o'rtacha qiymatlariga ko'ra 5 ga ajratildi: 1,03-1,65 gacha, 1,66-2,27 gacha, 2,28-2,89 gacha, 2,90-3,51 gacha, 3-52-4,13 gacha.

Antamoshkina Y.N taklif qilgan va muallif tomonidan mukammallashtirilgan metod bo'yicha viloyat ma'muriy hududiy birliklari bo'yicha o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha baholash amalga oshirildi.

Viloyat ma'muriy birliklarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganligi  $\leq 0,5$  past; 0,5-0,9–ruxsat etilgan; 0,9-1,1–optimal va  $1,1 \leq$  meyordan yuqori ko'rsatkich parametrlariga ajratildi va umumiy ball shakllantirildi.

Xalqaro statistikada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi, aholi iste'mol qiladigan mahsulotlarning kaloriyalik darajasi bilan o'lchanadi. Ammo ushbu statistik ma'lumotlar kamchiliklardan holi emas. Sababi har bir xalq o'zining an'anaviy oziq-ovqat iste'mol an'alariga ega. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlanishining ko'pgina modellari ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan. Bu modellar hududni ayrim oziq-ovqat turlari bilan o'z-o'zini ta'minlashni aniqlash imkonini yaratadi. Mamlakat yoki hududning o'z-o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning talab darajasida ishlab chiqilgan modeli mavjud emas.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мадаминов З. Х. ИСТОРИЯ ПРОМЫШЛЕННОГО РАЗВИТИЯ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 955-958.
2. Мадаминов З. Х., Дададжонова Р. Т. РЕГИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ //Экономика и социум. – 2019. – №. 11 (66). – С. 943-945.
3. Мадаминов З. Х. ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 485-488.
4. Мадаминов З. Х., Салиджанов С. О., Сабиров Т. С. ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРИРОДА-НАСЕЛЕНИЕ-ХОЗЯЙСТВО (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОСТИ) //Экономика и социум. – 2019. – №. 10 (65). – С. 481-484.
5. Komilova N. K. et al. Economic and geographic problems of improvement of industrial sectors and local structure of Uzbekistan //Journal of Advanced Research in Law and Economics. – 2019. – Т. 10. – №. 6 (44). – С. 1916-1928.





6. Kh M. Z. PRODUCTION AND CONSUMPTION OF GOODS OF PEOPLE'S CONSUMPTION AS AN OBJECT OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES //Экономика и социум. – 2020. – №. 1 (68). – С. 61-63.

7. Мадаминов З. Х., Абдукаххоров Л. Ш., Алижонova Н. У. ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ИСТЕЪМОЛ ҚИЛИШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 88-93.

8. Мадаминов З. Х., Абдуганиев О. И. ИЗУЧЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 959-962.